


**TOSHKENT VILOYATI
TASHQI SAVDO AYLANMASI***2025- yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot*

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3 074,3 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 390,5 mln AQSH dollariga yoki 14,6 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)

TSAda eksport hajmi 964,7 mln AQSH dollariga (2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 11,0 % ga kopaydi) va import hajmi 2 109,6 mln AQSH dollariga (16,3 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 1 145,0 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Toshkent viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln AQSH dollari)**

Davlatlar	2024- y.	2025- y.
Xitoy	696,9	892,3
Rossiya Federatsiyasi	759,3	813,7
Qozog'iston	347,5	360,0
Turkiya	198,4	172,7
Qirg'iz Respublikasi	31,1	85,7
Tojikiston	43,6	76,9
Germaniya	48,5	69,5
Belorussiya	61,2	64,9
Afg'oniston	25,9	58,6
Braziliya	79,9	42,2
Singapur	49,7	38,8
Belgiya	18,6	37,5
Hindiston	21,4	27,1
Italiya	56,2	26,5
Eron Islom Respublikasi	17,8	23,8
Koreya Respublikasi	14,8	23,2
Indoneziya	5,0	18,5
Shveysariya	47,5	17,3
Xitoy, Gonkong MMR	0,9	17,3
Turkmaniston	12,4	16,2

Toshkent viloyati jahonning 102 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (29,0 %), Rossiya Federatsiyasida (26,5 %), Qozog'istonda (11,7 %), Turkiya (5,6 %) va Qirg'iz Respublikasida (2,8 %) qayd etilgan.

II. TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI


2.1- jadval

Tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami eksport	869,1	964,7	92,6	111,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	97,0	144,5	96,8	148,9	11,2	15,0
Ichimliklar va tamaki	7,0	5,8	167,9	82,5	0,8	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	31,5	22,7	122,6	72,0	3,6	2,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,3	8,1	180,2	128,1	0,7	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4,8	5,1	11,6 m.	106,9	0,6	0,5

Tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	48,5	61,2	132,0	126,0	5,6	6,3
Sanoat tovarlari	524,8	531,4	85,6	101,3	60,4	55,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	30,5	40,6	119,9	133,2	3,5	4,2
Turli xil tayyor buyumlar	114,8	118,2	91,7	103,1	13,2	12,3
Boshqa tovarlar	0,0	17,5	-	-	-	1,8
Xizmatlar	3,9	9,6	96,9	22,5 m.	0,4	1,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,0 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (55,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,0 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,3 %) va turli xil tayyor buyumlar (12,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari
(mln AQSH dollari)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya Federatsiyasi (33,3 %), Xitoy (24,9 %), Turkiya (8,3 %), Qozog'iston (7,7 %), Afg'oniston (5,9 %), Tojikiston (2,7 %), Qirg'iz Respublikasi (2,1 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 84,9 % ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida 129,6 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 150,7 % ga yoki 43,6 ming tonnaga ko'paydi.

Meva va sabzavotlar eksporti

2.2-jadval

	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollari	Hajmiga nisbatan, o'sish sur'ati
Jami	129 583,2	90 544,8	105,3
Uzum	2 016, 8	1 135,9	2,5 m.
shu jumladan: qurutilgan	3 113,6	3 713,5	2,1 m.
Piyoz	20 686,1	5 178,6	129,5
Qovun (shu jumladan tarvuz)	7 263,5	1 604,2	8,3 m.
O'rik	6 278,8	4 304,3	195,1
Boshqa meva va sabzavotlar	90 224,4	74 608,3	164,4

2025- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 90,5 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.

III. TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI

2025- yilning yanvar-iyun oyida import hajmi 2 109,7 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 11,0 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (26,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (14,7 %) hamda sanoat mahsulotlari (14,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Toshkent viloyatining importi tarkibi


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami import	1814,7	2109,7	99,4	116,3	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	356,0	312,9	118,5	87,9	19,6	14,7
Ichimliklar va tamaki	2,4	2,3	77,9	97,1	0,1	0,1
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'idantashqari	230,4	318,0	78,0	138,0	12,7	15,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	264,3	242,4	175,1	91,7	14,6	11,5
Hayvonvao'simliklarmoylari (yog'lari), yog'larvamumlar	42,1	62,6	98,0	148,7	2,3	3,0

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	164,0	221,0	93,2	134,7	9,0	10,5
Sanoat tovarlari	224,0	305,1	77,5	136,2	12,3	14,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	449,7	559,2	85,8	124,4	24,8	26,5
Turli xil tayyor buyumlar	33,7	44,4	81,5	131,5	1,9	2,1
Boshqa tovarlar	43,2	27,4	67,9 m.	63,5	2,4	1,3
Xizmatlar	4,9	14,4	2,0m.	2,9 m.	0,3	0,7

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 285,3 mln AQSH dollariga ko'paydi va 2 095,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 14,4 mln AQSH dollariga yetdi.

Toshkent viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari
(mln AQSH dollari)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyati 92 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Rossiya Federatsiyasi (23,3 %), Xitoy (30,9 %), Qozog'iston (13,5 %), Turkiya (4,4 %), Qirg'iz Respublikasi (3,1 %), Germaniya (3,1 %) va Tojikiston (2,4 %) jami importning 80,7 % ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 14,9 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 0,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 2,9 barobar oshgan.



IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezedentdan norezedentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Ijrochi: M.Mirzokirov Tel: +998712034500 (4541)	Manzil: Toshkent viloyati Nurafshon shahar Toshkent yo'li ko'chasi,90
---	---	--